

<https://hstryres.uz/journal/index.php/makro>

2025, № 3 (11)

ISSN-3030-3761



ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
Илмий журнали

ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
Научный журнал

HISTORICAL RESEARCHES
Scientific journal

ТОШКЕНТ-2025

ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
HISTORICAL RESEARCHES

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосори:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief editor:

Шакиров Ильяс Рахимзянович
т.ф.ф.д., (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ
РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ
EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор, Академик
Ўзбекистон Миллий университети
Сулейманов Рустам Хамидович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Муминов Алишер Гаффарович
Сиёсий фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Зуев Андрей Сергеевич
тарих фанлари доктори, профессор
Новосибирск Давлат университети
Ишанхужаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулов Ахмад Баймаҳаматович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Габриэльян Софья Ивановна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Убайдуллаева Барно Машрабжоновна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Очилдиев Файзулла Бобокулович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Саидбобоев Зокиржон Абдукаримович
тарих фанлари номзоди, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Азизов Илдар Рафаэлевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Бизнес ва тадбиркорлик олий мактаби

Сиддиқов Равшан Бердимуратович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Тухтабеков Козимбек Азимбекович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Бабабеков Акбар Давурбаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Баҳранов Шерзод Таштурсунович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Жамоат ҳафсизлиги университети
Али Назарова Дилдора Валишеровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулова Шахноза Боймуҳамматовна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Навоий Давлат педагогика институти
Нормуродов Дилмурод Раҳматуллаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Абдулаева Нигора Санжаровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Давлат Жаҳон тиллари университети
Тоғаев Жасур Эркинович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Усаров Умид Абдумавлянович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Эгамбердиева Гузаль Акрамжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Эшқувватов Бобир Валикул ўғли
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

Контакт редакции журнала
Город Ташкент, улица Мирзо Галиба,
Исторический факультет
Национального Университета
Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Тел: +998900382203

Contact Editors of journal
Tashkent city, street of Mirzo Golib,
Faculty of history of the National
university of Uzbekistan named after
Mirzo Ulugbek
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Phone: +998900382203

МУНДАРИЖА / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENT

1. Abdullaev Elbek Abduqahhor o'g'li AMIR TEMURNING 1393 YILGI ERON YURISHI	5
2. Akbarov Ravshan Xalimovich TURKISTONDA JADID MAKTABLARI TARMOG'INING VUJUDGA KELISHIDAGI SHART-SHAROITLAR	13
3. Бобожонов Шавкатжон Улуғбекович “ҚОЗОН ТЎЛДИ” – НАВРЎЗНИНГ БОЎИЙ МАРОСИМИ	21
4. Дусчанов Расулжон Рахимбаевич ЎЗБЕКИСТОН ССР МОЛИЯ ХАЛҚ КОМИССАРЛИГИ БОШҚАРУВ ТИЗИМИ	34
5. Israilov Nodir Rahimjonovich LYUDOVIK XIV NI HAYRATLANTIRGAN SIYMO	41
6. Karimova Nazokat Voxidjon qizi ANTIK DAVR FARG'ONA VODIYSIDA URBANIZATSIYA JARAYONLARINI TARAQQIY ETISHI	47
7. Maxmudova Muazzamxon Sultonmahmudovna AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI KUTUBXONALARI	53
8. Mo'minov Mironshoh Abdualim o'g'li THE IMPORTANCE OF SUSTAINABILITY: A PATH TO A GREEN FUTURE	61
9. Mubinov Muhammadali Akobirovich BUXORO AMIRLIGI TO'G'RISIDAGI MA'LUMOTLARNING YEVROPA MAMLAKATLARIDA OMMALASHUVI (INGLIZABON MUALLIFLAR ASARLARI ASOSIDA)	70
10. Нишонов Абдурашид Абдурасулович СЕВИНЧХОЖАХОН ХОНАДОНИ ТАРИХИ МЕМУАР АСАРЛАРДА ЁРИТИЛИШИ	84
11. Nishonov Abdurashid Abdurasulovich KELDIMUHAMMAD SULTON HUKMRONLIGI DAVRIDA FARG'ONA VODIYSIDAGI SIYOSIY JARAYONLAR	90
12. Ravshanov O'ktamali Rustam o'g'li BUXORO AMIRLIGI VA ERON MUNOSABATLARI TARIXIDAN	97
13. Raxmanova Odinaxon Ravshanbekovna., Odilov Muhammadqodir Olimjon o'g'li IBN AN-NADIMNING AL-FIHRIST ASARI TARIXIY MANBA SIFATIDA	107
14. Said Irandoust ESTABLISHING WORLD-CLASS RESEARCH UNIVERSITIES	114

15. Таниева Гулдона Мамановна МАРКАЗИЙ ОСИЁ ТАРИХИДА ҲАЖ СИЁСИЙ БАДАРҒА ҚУРОЛИ СИФАТИДА	119
16. Хакимова Саида Бахтиёровна «ТУРКЕСТАНСКИЙ СБОРНИК» КАК ИСТОЧНИК ПО ИСТОРИИ ВОДНЫХ РЕСУРСОВ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ	125
17. Yuldasheva Muslima Ma'murovna RISHTONDA CHINNI ISHLAB CHIQRISH TARIXI	132
18. Shermatova Guljahon Sultonovna XORAZMSHOHLAR DAVLATCHILIGI TARIXIGA DOIR MANBALAR XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR	137

Yuldasheva M. M.

«Jahon tarixi» kafedrası tayanch doktoranti
Fargʻona davlat universiteti
m.yuldasheva87@mail.ru

RISHTONDA CHINNI ISHLAB CHIQRISH TARIXI

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada chinni ishlab chiqarish tarixi, xususan, Markaziy Osiyo kulolchilik maktablaridan biri boʻlgan Rishtonda chinni ishlab chiqarilish tarixi, chinnichi ustalar hamda mazkur hududda hozirgi kundagi ishlab chiqarilayotgan chinni mahsulotlari haqida maʼlumot berilgan.

Kalit soʻzlar: Rishton, Davan, chinni, Usta Abdullo, neolit, xumdon.

KIRISH

Kishilik jamiyatining ilk sivilizatsiyalar davridan boshlab moddiy-maishiy hayotda insoniyatga hamrohlik qilib kelayotgan tosh, yogʻoch, loy kabi materiallar mavjud. Oddiygina loydan yasalgan kulolchilik buyumlarini yasash inson tomondan oʻzlashtirilgan eng qadimgi hunar turlaridan biridir. Ibtidoiy jamiyat odamlari ham loydan kundalik hayot uchun turli maishiy buyumlar hamda kulbalarini isitish uchun oʻchoqlar yasaganlar. Albatta, dastlabki davrlarda bu kabi mahsulotlar juda primitiv boʻlib, faqatgina kundalik ehtiyoj uchun yasalgan, keyinchalik tasviriy sanʼat va boshqa ijodkorlik tasavvurlari paydo boʻlib, asta-sekin sanʼat asari darajasida taraqqiy eta boshlagan. Bugungi raqamli texnologiyalar hamda sanoat ishlab chiqarish jadal rivojlangan davr boʻlishiga qaramay, qoʻl mehnatiga asoslangan turli hunarmandchilik sohalari milliy qadriyatlar sifatida aslini hanuzgacha nafaqat saqlab kelmoqda, balki qadr-qimmati yanada oshib bormoqda. Milliy qadriyat darajasiga koʻtarilgan hunarlarni saqlab qolish yuzasidan xalqaro miqyosida ishlar amalga oshirilmoqda.

Markaziy Osiyoda chinni ishlab chiqarish, asosan, Xitoy bilan olib borilgan savdo-sotiq munosabatlariga borib taqaladi. Xitoy madaniyatiga qiziqish Markaziy Osiyo hududida yashagan xalqlarda qadim zamonlardan paydo boʻla boshlagan. Qadimgi Fargʻona – Davan va Xitoy oʻrtasida ayrim umumiy xususiyatlarning mavjudligi miloddan avvalgi 136–128-yillarda va Gʻarbiy mintaqaga ikki marta tashrif buyurgan Xitoy elchisi Chjan Szyanning hisobotlarida ham oʻz aksini topgan. Unda Xitoy buyumlariga taqlid borasida quyidagi fikr qayd etilgan. “Davan, nafislikda oʻrta podsholikka juda oʻxshaydi [1-25].

Chinni mahsulotlari ishlab chiqarish dastlab VI asrda Xitoyda boshlangan. Dastlab Xitoy chinnisi uzoq vaqt davomida faqat imperatorlar uchun imperatorning shaxsiy ustaxonalarida qat'iy maxfiylik sharoitida ishlab chiqarilgan [2-238]. Oddiy aholi chinni buyumlariga ega bo'lmagan. Xitoy hamda Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi madaniy va savdo aloqalarining rivojlanishida Buyuk Ipak yo'lining ahamiyati yuqoridir. Buyuk Ipak yo'li orqali Chin yurti (Xitoy)dan Markaziy Osiyoga olib kelingan chinni mahsulotlari "chinni", ya'ni "chinniki" yoki "chin mahsuloti" deb atalgan. Keyinchalik Eron hamda rus chinnilari Markaziy Osiyo bozoriga kirib kelgan.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

Markaziy Osiyo hunarmandchiligiga oid ko'plab manbalar yaratilgan. Jumladan, Rishton kulolchiligini o'rganishda X.Burxonovning "Rishton mo'jizasi", Ye.M.Pesherovanning "Гончарное производство Средней Азии", M.Rahimovning "Markaziy Osiyo kulolchiligi" kitoblari [1,2]. muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Farg'ona vodiysi kulolchilik sohasining muhim maktablaridan biri hisoblangan Rishton tarixda va bugungi kunda sopol buyumlar ishlab chiqarishdan tashqari, chinni mahsulotlari bilan ham e'tiborga tushmoqda. Rishtonda chinni mahsulotlari ishlab chiqarish, asosan, XIX asrga borib taqaladi. Bu davrda Xitoy va Qoshg'ar chinnilari xonliklar bozorlarini egallay boshlaydi. Mintaqa mahsulotlari bu chinnilar bilan raqobat qila olmay, aynan shu davrda bir nechta kulolchilik maktablari kasodga uchrab, yo'q bo'lib ketgan. Ana shunday vaziyatda Rishton kulollari kulolchilikni saqlab qolish va raqobatbardosh chinni mahsulotlari ishlab chiqarishni yo'lga qo'ydilar. Rishtonda chinni mahsulotlari ishlab chiqarishni dastlab Usta Jalil va Usta Jamillar yo'lga qo'ydilar. Ayrim rivoyatlarga ko'ra, o'zi ham sobiq kulol bo'lgan Usta Jalil savdo ishlari bilan Qoshg'arga tez-tez borib turgan va o'sha yerda chinni ishlab chiqarish jarayonini kuzatib, sirlarini o'rganadi. Boshqa bir rivoyatda esa Usta Quri, ya'ni Usta Jamil savdo ishlari yuzasidan bir marvlik savdogar bilan hamrohlikda Eron va Qoshg'arga sayohat qilib, chinni tayyorlash texnologiyasini o'rganadi [3-229]. Keyinchalik bu tajribani shogirdalari Usta Abdulloga o'rgatadilar. Usta Abdullo chinni buyumlar ishlab chiqarishni rivojlantirgani uchun ham Abdullo chinnipaz nomini oladi. Biroq, bu chinnilar xalq orasida "yolg'on chinni" nomini olgan. Sababi, bu chinnilar oddiy loydan qilingan. Chinnining tarkibi esa oq gil va kaolin, kvarts, dala shipatidan iborat edi. Bu tarkib chinnining sopolga nisbatan olovbardoshliligi hamda pishiq-puxtaligini taminlaydi. Mahsulot yupqa qilib ishlansa-da, mustahkam bo'ladi. Usta Abdullo "yolg'on chinnilari" sopolga nisbatan yupqaligi bilan ajralib turgan. Bundan tashqari, faqat ustaga ma'lum bo'lgan sirlash texnologiyasi sopolan ajratib turgan va yorqinlikni

ta'minlagan. Shuningdek, Xitoydan keltirilganiga ishora sifatida Xitoy chinnisi bezaklariga va naqshlariga taqlidni kuzatish mumkin. Hattoki, mahsulotga Xitoy chinnisiga xos yorliq ham yozilgan. Biroq, bo'yoqlar ranggi borasidagi taqlid biroz o'rinsizdir. Xitoyda qo'llaniladigan feruza rangidan foydalanish Markaziy Osiyo hududida azaldan mavjud bo'lgan. Boisi feruza Sharqdagi eng sevimli va qimmatbaho tosh ekanligi, shuningdek mintaqaning barcha hududida ushbu toshning mavjudligi moviy rangdan foydalanish Markaziy Osiyoga ham xosligini bildiradi.

Shunday qilib, Usta Abdullo nomi bilan bog'liq holda Rishtonda ham chinni ishlab chiqarish boshlandi. Biroq, shuni ham ta'kidlash lozimki, Rishtonning keksa ustalaridan biri Egamberdi Raxmonovning aytishicha, u o'tgan asrning 80-yillarida Rossiyadagi Ermitaj muzeyida bo'lgan chog'ida 300 yil oldin ishlangan, noma'lum usta tomonidan ishlangan Rishtonga tegishli chinni tovoqni ko'rgan. Ehtimol Rishtonda chinni ishlab chiqarish Usta Abdullodan ilgari ham bo'lgan, lekin ma'lum vaqt to'xtab qolgan bo'lishi ham mumkin [4]. Bu taxmin alohida tadqiqotni talab etadi.

Usta Abdullo tomonidan ishlangan mahsulotlar ham hozirda jahonning ko'plab muzeylarida hamda bir nechta shaxsiy kolleksiyalarda saqlanmoqda. Usta Abdullo chinni ishlab chiqarish sirini hech kimga aytmagan bo'lsa-da, keyinchalik u yashagan Qulibegon mahallasida keyingi avlod ustalar izlanishlari sabab chinni ishlab chiqarish rivojlanadi va ushbu mahalla "Chinnigaron", ya'ni "Chinnichlar mahallasi" deb yuritila boshlaydi.

1972-yilda Rishton badiiy kulolchilik buyumlari zavodi ishga tushirildi [5-5]. 1970–1990-yillar oralig'ida bu zavod ishlab chiqarish sur'ati jadal rivojlandi. Bu davr mobaynida jamoa ustalari Fransiya, Italiya, Yaponiya, Germaniya, Amerika, Avstriya kabi yirik mamlakatlarda o'tkazilgan xalqaro ko'rgazmalarda qatnashganlar. [6-64]. 1994-yildan bu zavodda chinni ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi va chinnipazlik davri ham boshlandi. 1995-yilda zavod ochiq turdagi hissadorlik jamiyatiga aylantirildi. 90-yillar oxiridan boshlab 70 yil ilgarigi artellar tashkil qilishdan oldingi holatga qaytish, ya'ni endi kulollar o'z uylarida mahsulot ishlab chiqarish va sotish imkoniyatiga ega bo'ldilar. 2000-yillardan boshlab esa, uylarda chinni idishlar ishlab chiqarish ham boshlandi.

Buyumlarni bezash texnikasida trafaretda rang sepish (asosan, paxta gulli va atlas naqshlari) usulidan foydalanilgan. Chinni mahsulotlari ishlab chiqarishning rivojlanishi natijasida piyola, kosa, choynak kabi sopol buyumlar ishlab chiqarish kamaydi. Sababi sopol buyumlarga ehtiyoj kamaydi. Biroq, uylarda chinni ishlab chiqarish jarayoni uzoq davom etmadi. Bu tabiiy gaz bilan bog'liq holda chinni ishlab chiqarish jarayonlari to'xtab qoldi. Chunki sopol 950 haroratda 12–13 soat davomida pishirilsa, chinni 1200 haroratda 18 soat davomida pishadi. Aholiga gaz

yetkazib berish muammosi paydo bo'lgani sababli uylarda chinni ishlab chiqarish to'xtatildi. 2006–2007-yillardan boshlab chinni ishlab chiqarishni yana yo'lga qo'yish maqsadida alohida hudud tashkil etildi. Biroq faoliyatni yo'lga qo'yish katta mablag' talab qilgani bois, asosan, tadbirkorlar mazkur hududlarda faoliyatni yo'lga qo'ydilar. Piyola, kosa yasovchi kulollar esa ularning qo'lidagi ishchilarga aylandilar.

XULOSA

2017-yildan keyin tadbirkorlikka berilgan keng imkoniyatlar sababli Rishtonda chinni buyumlar ishlab chiqarish va ularga bezak berish yanada rivojlandi. Bu esa ko'plab yoshlarni ish o'rinlari bilan ta'minlash imkoniyatini berdi. Tadbirkor Muhayyo Sattorova tomonidan tashkil etilgan "MM Porcelain" oilaviy korxonasiga qarashli chinni mahsulotlariga bezak berish sexida bugungi kunda 100 nafar xotin-qizlar ish bilan ta'minlangan. Shuningdek, 300 ta xonadondan 700 nafardan ortiq ayollar kasanachilik asosida ishga jalb etilgan. Korxona tomonidan bu yil 1 mln dollarlik chinni buyumlari eksport qilinishi rejalashtirilgan. Tumandagi sobiq badiiy kulolchilik zavodi o'rnida tashkil etilgan yangi sanoat zonasida ham bugun chinni va keramika mahsulotlari ishlab chiqarish hamda bezak berishga ixtisoslashgan 37 ta korxona faoliyatini boshlagan. Loyiha qiymati qariyb 76 mlrd so'm bo'lgan sanoat zonasida 7 mingdan ziyod ish o'rni yaratilgan. Bugungi kunda Rishton chinni mahsulotlari dunyoning ko'plab davlatlariga eksport qilinmoqda.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Е.М. Пещерева. Гончарное производство Средней Азии. – Москва. 1959. – С 229.
2. Х.Бурхонов. Риштон Мўжизаси. – Тошкент: "Ўзбекистон", 1983. – Б. 5.
3. Кодзаева Л. Тарих. Анъана. Эски давр усталари. "Ўзбекистон санъат дурдоналари" туркумидан Риштон кулолчилиги. "Zamon-Press-Info Nashriyot uyi". -Б 25-27. – Тошкент. 2021.
4. Usta Raxmonov Eganberdi. 1938-yil 23 mayda tug'ilgan.
5. Ustazoda kulol, Фирдавс боғи. Шарқ. Тошкент. 1996. – Б 64.

Юлдашева М. М.

Докторант кафедры «Всемирная история»
Ферганский государственный университет
m.yuldasheva87@mail.ru

ИСТОРИЯ ФАРФОРОВОГО ПРОИЗВОИСТВА В РИШТАНЕ

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается история производства фарфора, в частности история производства фарфора в Риштане, одной из среднеазиатских гончарных школ. Информация о мастерах фарфора и фарфоровых изделиях, производимых ныне в этом регионе.

Ключевые слова: Риштан, Даван, фарфор, Мастер Абдулла, хумдан.

Yuldasheva M. M.

Doctoral student at the department of «World History»
Fergana State University
m.yuldasheva87@mail.ru

HISTORY OF PORCELAIN PRODUCTION IN RISHTAN

ABSTRACT

In this article, the history of porcelain production, in particular, the history of porcelain production in Rishtan. One of the Central Azian pottery schools, information about porcelain masters and porcelain products produced in this region today.

Key words: Rishtan, Davan, porcelain, Usta Abdullah, Neolithic, Khumdan.